

## **INGLIZ TILINI O‘QITISHDA VIDEOCHAT PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI**

**Rasulova Dilnoza Boisxonovna**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

[dilnozarasulova1409@gmail.com](mailto:dilnozarasulova1409@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida videochat platformalaridan samarali foydalanishning lingvodidaktik asoslari yoritilgan. Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sababli zamonaviy ta’limda onlayn platformalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Zoom, Google Meet, Microsoft Teams va Telegram kabi platformalar orqali chet tilini o‘rgatishda muloqotga asoslangan yondashuv, interaktiv metodlar va multimodal o‘qitish imkoniyatlari kengaymoqda. Maqolada har bir platformaning texnik va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning til o‘rganishdagi samaradorligi, ayniqsa, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Videochatlar orqali o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalash, real muloqot muhitida ishtirok etish va reflektiv tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Lingvodidaktik tamoyillar – kommunikativlik, interaktivlik, motivatsiya va shaxsga yo‘naltirilganlik asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilar nutqiy faolligini oshiradi. Telegram platformasining oddiylik va funkcionallik jihatlari, Zoom’dagi Breakout Rooms imkoniyati, Teams va Meet’dagi integratsion qulayliklar asosida amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:**lingvodidaktika, ingliz tili, interaktiv ta’lim, videochat, Zoom, Google Meet, Microsoft Teams, Telegram, CLT, TBLT, multimodal o‘qitish.*

## **ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИДЕОЧАТ-ПЛАТФОРМ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

**Расулова Дилноза Боисхоновна**

Преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

[dilnozarasulova1409@gmail.com](mailto:dilnozarasulova1409@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье подробно рассматриваются лингводидактические основы использования видеочат-платформ в процессе преподавания английского языка. В условиях глобализации и цифровизации образовательной среды видеокommunikационные технологии становятся неотъемлемой частью*

учебного процесса. Авторы анализируют такие платформы, как Zoom, Microsoft Teams, Google Meet и Telegram, в контексте их дидактических возможностей, особенно в развитии речевых навыков учащихся. Особое внимание уделяется коммуникативному подходу, принципам интерактивности, мотивации и индивидуализации обучения. Платформы предоставляют богатые ресурсы для организации реального речевого общения, развития самостоятельного мышления и повышения активности студентов. Отдельно рассматриваются такие функции, как Breakout Rooms в Zoom, интеграция с офисными приложениями в Microsoft Teams, автоматизация заданий с помощью ботов в Telegram и визуальная поддержка в Google Meet. Результаты исследования подтверждают эффективность использования видеочат-платформ в обучении иностранным языкам, особенно в дистанционном формате. Статья может быть полезна преподавателям, методистам и разработчикам учебных курсов.

**Ключевые слова:** лингводидактика, английский язык, видеочат, дистанционное обучение, Zoom, Google Meet, Microsoft Teams, Telegram, коммуникативный подход, мультимодальное обучение, TBLT

## **LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF USING VIDEO CHAT PLATFORMS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING**

**Rasulova Dilnoza Boisonovna**

Teacher of Uzbekistan State World Languages University

dilnozarasulova1409@gmail.com

### **ABSTRACT**

*This article provides a comprehensive analysis of the linguodidactic foundations of using video chat platforms in English language teaching. In the era of globalization and rapid technological advancement, video communication tools such as Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, and Telegram have become essential components of modern language instruction. The article explores how these platforms align with key linguodidactic principles, including communicative, interactive, learner-centered, and motivational approaches. Emphasis is placed on their role in developing students' speaking skills, fostering real-time communication, and encouraging reflective learning. Features such as breakout rooms in Zoom, Office integration in Microsoft Teams, real-time captions in Google Meet, and bot automation in Telegram are discussed as tools that support active language acquisition. The study concludes that integrating video chat tools into language teaching not only enhances interactivity and accessibility but also transforms the*

*learning process into a more natural and engaging experience. The article serves as a useful resource for language teachers, course developers, and educational technologists.*

**Keywords:** *linguodidactics, English language teaching, video chat platforms, Zoom, Google Meet, Microsoft Teams, Telegram, CLT, TBLT, interactive learning, multimodal approach*

## **KIRISH**

Global taraqqiyotning muhim xususiyatlari sohalarga texnikaning kirib kelishi, kompyuter dasturlarining shakllanishi, integratsiya jarayoni bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonida onlayn platformalar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bugungi kunda o‘zbek tilining mavqeyini yuksaltirish, nufuzli tillar qatoriga olib chiqish muhim zaruratlardan biri hisoblanadi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari taraqqiyoti tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish O‘zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishga zamin yaratadi. Globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, tez sur‘atlar bilan rivojlanishni talab etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma’lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tajjima, tahrir jarayonlarining qisqa muddatlarda amalga oshirilishini, turli millatga mansub muloqot vakillari o‘rtasida vosita sifatida xizmat qiluvchi, ya’ni axborot-kompyuter uslubining shakllanishini ta’minlaydi. Texnologiya asrida taraqqiyot sur‘atining tezlashgani, intellektual salohiyat, texnikaning yuqori darajada yuksalishi kishilik jamiyati oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda. Mintaqamizdagi globallashuv jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, jadal taraqqiyotni talab etmoqda. Kompyuter tizimi qulayliklar, imkoniyatlar majmuyiga va tarkibiy qismiga aylandi.<sup>1</sup>

Til o‘qitishning lingvodidaktik asoslari o‘quvchilarning nutqiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, muloqotga asoslangan yondashuv orqali tilni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda videochat platformalari aynan shu tamoyillar asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish imkonini bermoqda. Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalar orqali o‘tkazilayotgan ingliz tili darslari interaktiv, jonli va individual yondashuvlarga boy bo‘ladi.

Bu vositalar kommunikativ yondashuv asosida real muloqot muhitini yaratadi; ko‘pkanallilik tamoyiliga mos holda, eshitish, ko‘rish, og‘zaki ifoda vositalarini

<sup>1</sup> Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi asoslari. -T., Akademiya nashri, 2011

birlashtiradi; refleksiya va metakognitiv yondashuvga imkon yaratadi – o‘quvchi o‘z nutqini tinglab, tahlil qilishga o‘rganadi; motivatsiyani oshiradi, chunki darslar ko‘proq suhbat, o‘yin, savol-javob shaklida o‘tadi.

O‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, real muloqot muhitida o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirishda bu platformalar ta’limda yangicha bosqich ochadi.

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida lingvodidaktika fanining asosiy vazifasi – chet tilini real kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rgatishdan iborat. Bu jarayonda videochat platformalari – Zoom, Google Meet, Microsoft Teams va boshqa interaktiv vositalar lingvodidaktik tamoyillarni amalda qo‘llash imkonini beradi.

**Lingvodidaktik tamoyillar:** videochat platformalari quyidagi lingvodidaktik tamoyillar asosida samarali foydalaniladi:

-kommunikativlik tamoyili: Brown (2001) fikricha, talabning muloqotga asoslangan vazifalar orqali tilni faol ishlatishi uni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi [p. 45].<sup>2</sup>

-interaktivlik tamoyili: Richards & Rodgers (2001) ta’kidlashicha, o‘quvchilar o‘zaro muloqot asosida til kompetensiyasini rivojlantiradi, ayniqsa onlayn darslarda bu jarayon yanada faollashadi [p. 112].<sup>3</sup>

-shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili: Har bir talabning ehtiyoji, qiziqishi va til bilish darajasiga mos topshiriqlar berish ularning o‘quv motivatsiyasini oshiradi.

-motivatsiyani oshirish: Chet tilini jonli muloqotda o‘rganish, ayniqsa tengdoshlari yoki xorijlik suhbatdoshlar bilan suhbatda bo‘lish, ijobiy psixologik fon yaratadi (Dörnyei, 2005).

Lingvodidaktik yondashuvlar: videochat platformalari bir nechta yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi:

Muloqotga asoslangan yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT): Bu yondashuvga ko‘ra, til muloqot vositasi sifatida o‘rganiladi. Talaba har bir topshiriqda aloqa maqsadini ko‘zlaydi (Richards, 2006).<sup>4</sup>

Vazifaga yo‘naltirilgan o‘qitish (Task-based Language Teaching – TBLT): Talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar beriladi. Masalan, intervyu, muhokama, taqdimotlar.

Ko‘pkanalli (multimodal) yondashuv: video, audio, chat, ekran ulashish vositalari orqali ko‘p hissiy kanallar jalb qilinadi (Mayer, 2009).<sup>5</sup>

<sup>2</sup> Brown, H. D. (2001). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (2nd ed.). Pearson Education.

<sup>3</sup> Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.

<sup>4</sup> Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.

<sup>5</sup> Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.

Platformalarning lingvodidaktik imkoniyatlari: videochat vositalari o‘zining texnik imkoniyatlari orqali til o‘rganish jarayonini qulay va jonli qiladi:

Real vaqtli muloqot: videoqo‘ng‘iroq orqali jonli suhbat.

Vizual ko‘mak: mimika, gestlar va vizual materiallar yordamida tushunishni yengillashtiradi.

Breakout rooms: kichik guruhlariga bo‘lib, muloqotni yanada faol qilish mumkin.

Dars yozuvlari: qayta ko‘rish va tahlil qilish imkoniyati.

Madaniy kontekstda til o‘rganish: xorijlik talaba yoki spikerlar bilan muloqot orqali intermadaniy kompetensiyalar shakllanadi.

Zamonaviy til o‘qitish jarayonida videochat platformalarining roli ortib bormoqda. Ayniqsa, pandemiya davridan so‘ng masofaviy ta‘lim texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda videochat platformalari real vaqtli muloqot muhiti yaratishi bilan ajralib turadi. Quyida eng ko‘p ishlatiladigan to‘rtta platforma – Zoom, Microsoft Teams, Google Meet va Telegram – tahlil qilinadi.

Zoom eng mashhur va keng qo‘llaniladigan videochat platformalardan biridir. Uning eng asosiy afzalligi bu — Breakout Rooms funksiyasi bo‘lib, talabalarni kichik guruhlariga bo‘lib, ularga mustaqil muloqot qilish imkonini beradi. Bu esa aynan gapirish ko‘nikmasini shakllantirish uchun ideal muhit yaratadi.

Brown (2001) ta’kidlashicha, talabalar muloqotga asoslangan topshiriqlarda faol ishtirok etganda, ular real hayotdagi vaziyatlarga tayyor bo‘ladi. Zoom aynan shunday vaziyatlarni taqlid qilish imkonini beradi.<sup>6</sup>

Dhawan (2020) Zoom orqali olib borilgan darslar talabalarni faol suhbatga jalb qilganini, ayniqsa, virtual guruhli muhokamalar samarali bo‘lganini aytgan.<sup>7</sup>

Almahasees et al. (2021) esa Zoomdan foydalanish talabalarda ishonchni oshirishini va ular erkin fikr bildirishga intilishini qayd etgan.<sup>8</sup>

Microsoft Teams – ayniqsa akademik muhitda keng qo‘llaniladigan platforma bo‘lib, Ofis dasturlari bilan to‘liq integratsiya qilingan. Darslar, topshiriqlar, fayllar va chatlar bir joyda jamlanadi.

Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish nuqtai nazaridan, Teams orqali ham sinf ichida muhokamalarni tashkil etish, video orqali suhbatlar va loyiha taqdimotlari o‘tkazish mumkin.

<sup>6</sup> Brown, H. D. (2001). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (2nd ed.). Pearson Education.

<sup>7</sup> Dhawan, S. (2020). Online learning: A panacea in the time of COVID-19 crisis. *Journal of Educational Technology Systems*, 49(1), 5–22.

<sup>8</sup> Almahasees, Z., Mohsen, K., & Amin, M. O. (2021). Faculty’s and students’ perceptions of online learning during COVID-19. *Education and Information Technologies*, 26(3), 2629–2648.



Richards & Rodgers (2001)ga ko'ra, til o'rganish jarayoni muloqotga asoslangan bo'lishi lozim. Microsoft Teams bu imkoniyatni yaratadi, biroq undan interaktiv tarzda foydalanish o'qituvchining kreativligiga bog'liq.<sup>9</sup>

Cutri et al. (2020) o'z tadqiqotida Teams orqali olib borilgan darslar talabalarning akademik tayyorgarligini kuchaytirganini bildirgan.<sup>10</sup>

Biroq Rapanta et al. (2020) Teams interfeysi ba'zi talabalar uchun murakkab bo'lishi mumkinligini eslatib o'tgan.<sup>11</sup>

Google Meet platformasi Gmail va Google Classroom bilan integratsiyasi tufayli o'qituvchilar uchun qulay. Bu platformaning o'ziga xos jihati — real vaqtli subtitrlar (yordamchi vosita sifatida), havola orqali tezkor kirish, va rekording funksiyalaridir.

Biroq gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun Breakout Rooms bepul versiyada yo'qligi bu imkoniyatni cheklaydi. Shunga qaramasdan, guruhli muhokama va taqdimotlar o'tkazish mumkin.

Mayer (2009) ta'kidlaganidek, multimedia vositalari orqali taqdim etilgan axborot vizual va eshitish kanaliga birgalikda ta'sir qiladi, bu esa til o'rganishda ko'proq e'tiborni jalb etadi.<sup>12</sup>

Trust & Whalen (2020) o'z tadqiqotlarida Google Meet o'qituvchilar uchun tez va samarali vosita bo'lib xizmat qilganini ta'kidlagan.<sup>13</sup>

Biroq ular ham interaktivlik darajasi Zoom bilan solishtirganda nisbatan past ekanini qayd etishgan.

Telegram dastlab matnli xabarlar uchun yaratilgan bo'lsa-da, hozirda video va audiochat funksiyalari ham mavjud. Ayniqsa, audio suhbatlar (Voice chat) va videodarslarni yozib yuborish orqali qisqa muloqotlar tashkil qilish mumkin.

Gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda Telegramning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, u mustaqil nutq topshiriqlari, feedback berish, yoki uyga vazifani audio orqali topshirish uchun juda qulay.

Richards (2006) fikricha, talaba tilda muloqot qilishga qancha ko'p imkoniyatga ega bo'lsa, tilga bo'lgan ishonchi va qiziqishi shuncha ortadi. Telegram aynan shaxsiy va tezkor muloqotni qo'llab-quvvatlashi bilan foydalidir.<sup>14</sup>

<sup>9</sup> Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.

<sup>10</sup> Cutri, R. M., Mena, J., & Whiting, E. F. (2020). Faculty readiness for online crisis teaching: Transitioning to online teaching during the COVID-19 pandemic. *European Journal of Teacher Education*, 43(4), 523–541.

<sup>11</sup> Rapanta, C., Botturi, L., Goodyear, P., Guàrdia, L., & Koole, M. (2020). Online university teaching during and after the Covid-19 crisis: Refocusing teacher presence and learning activity. *Postdigital Science and Education*, 2(3), 923–945.

<sup>12</sup> Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.

<sup>13</sup> Trust, T., & Whalen, J. (2020). Should teachers be trained in emergency remote teaching? Lessons learned from the COVID-19 pandemic. *Journal of Technology and Teacher Education*, 28(2), 189–199.

<sup>14</sup> Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.

Mukhortova (2021) Telegram orqali olib borilgan qisqa audio muloqotlar talabalar nutq faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini bildirgan.<sup>15</sup>

Biroq Shadiev et al. (2020) Telegram o'rta va katta guruhlar uchun unchalik samarali emasligini ta'kidlaydi.<sup>16</sup>

So'nggi yillarda Telegram messenjeri nafaqat aloqa vositasi, balki ta'limiy platforma sifatida ham keng qo'llanilmoqda. Ingliz tilini o'qitishda Telegram videochat funksiyasi orqali o'qituvchi va talaba o'rtasida real vaqtli muloqot tashkil etish mumkin. Guruhli suhbatlar, ekran ulashish, ovozli va video xabarlar orqali mashqlarni muhokama qilish va interaktiv topshiriqlarni bajartirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Telegram botlari yordamida avtomatik testlar tuzish, fayllar almashish va dars materiallarini tizimli yetkazish osonlashadi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilar bilan muntazam muloqotni ta'minlash, mustaqil fikrlashga undash va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda mobil ilovalarning ahamiyati ortib bormoqda. Shulardan biri – Telegram platformasi, hozirgi kunda nafaqat axborot almashish, balki masofaviy ta'lim vositasi sifatida ham keng qo'llanilmoqda. Ingliz tilini o'qitishda Telegram videochat funksiyasi orqali o'qituvchi va talaba o'rtasida real vaqtli muloqot tashkil etish mumkin. Guruhli suhbatlar, ekran ulashish, ovozli va video xabarlar orqali mashqlarni muhokama qilish va interaktiv topshiriqlarni bajartirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Telegram botlari yordamida avtomatik testlar tuzish, fayllar almashish va dars materiallarini tizimli yetkazish osonlashadi. Telegram videochat funksiyasi orqali o'qituvchi talabalar bilan real vaqt rejimida muloqot o'tkazishi, og'zaki topshiriqlarni berishi va interaktiv mashg'ulotlar tashkil etishi mumkin. Quyida ushbu platformaning afzalliklari va cheklovlari bayon etiladi:

Afzalliklari:

- Qulay va keng tarqalgan platforma – Telegram ilovasi deyarli barcha talabalar tomonidan ishlatilgani sababli texnik moslashuv oson amalga oshadi.
- Ko'p funksiyali imkoniyatlar – videoqo'ng'iroq, ovozli va yozma xabarlar, fayl ulashish, ekran bilan o'rtoqlashish imkoniyati darsni interaktiv tarzda olib borishga xizmat qiladi.
- Botlar yordamida avtomatlashtirish – testlar, mashqlar va eslatmalarni avtomatik yuborish imkoniyati mavjud.
- Mobil moslashuvchanlik – Telegram ilovasining mobil versiyasi yordamida talabalar istalgan joydan darsda ishtirok etishlari mumkin.

<sup>15</sup> Mukhortova, A. (2021). Using Telegram messenger to improve speaking skills of students. *International Journal of Innovative Technologies in Social Science*, 1(25), 29–33.

<sup>16</sup> Shadiev, R., Liu, T. Y., & Hwang, W. Y. (2020). Effects of mobile technologies on speaking skills in English as a foreign language: A meta-analysis. *Educational Technology Research and Development*, 68(3), 877–902.

Cheklovlari:

✧ Maxsus ta'limiy vositalarning yo'qligi – Telegram'da Zoom yoki Microsoft Teams'dagi “raise hand”, “whiteboard”, “breakout room” kabi funksiyalar mavjud emas.

✧ Ko'p ishtirokchilar bilan ishlashdagi murakkablik – katta guruh bilan samarali dars o'tkazish ma'lum texnik va tashkiliy cheklovlarga ega.

✧ Dars jarayonini boshqarishdagi qiyinchiliklar – talabalar faoliyatini nazorat qilish va interaktivlikni ta'minlash uchun o'qituvchidan qo'shimcha rejalashtirish va resurslar talab qilinadi.

Telegram platformasi Zoom yoki Microsoft Teams kabi videochat tizimlariga qaraganda ba'zi texnik imkoniyatlari bilan cheklangan bo'lsa-da, uni kichik guruhlarda yoki resurslari cheklangan muhitda samarali qo'llash mumkin. Ayniqsa, darsdan tashqari mustaqil muloqot va qo'shimcha mashg'ulotlar uchun bu platforma foydali vosita sifatida tavsiya etiladi. Madaniy kontekstda til o'rganish: xorijlik talaba yoki spikerlar bilan muloqot orqali intermadaniy kompetensiyalar shakllanadi.

Shunday qilib, videochat platformalarining qo'llanilishi til o'rganish jarayonini o'quvchi uchun qulay, interaktiv va natijador qiladi. Ular lingvodidaktikaning asosiy tamoyillarini (kommunikativlik, interaktivlik, individuallashtirish) hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi va til o'rganishni tabiiy jarayonga aylantiradi.

To'rt platformaning har biri o'ziga xos imkoniyatlarga ega bo'lib, Zoom platformasi gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun eng interaktiv va samarali hisoblanadi. Microsoft Teams va Google Meet ham foydali, biroq interaktiv imkoniyatlarida cheklovlar mavjud. Telegram esa qo'shimcha vosita sifatida, ayniqsa uy topshiriqlarini audio shaklda topshirish uchun qulay.

## **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Almahasees, Z., Mohsen, K., & Amin, M. O. (2021). Faculty's and students' perceptions of online learning during COVID-19. *Education and Information Technologies*, 26(3), 2629–2648. <https://doi.org/10.1007/s10639-020-10316-1>
2. Brown, H. D. (2001). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (2nd ed.). Pearson Education.
3. Cutri, R. M., Mena, J., & Whiting, E. F. (2020). Faculty readiness for online crisis teaching: Transitioning to online teaching during the COVID-19 pandemic. *European Journal of Teacher Education*, 43(4), 523–541. <https://doi.org/10.1080/02619768.2020.1815702>
4. Dhawan, S. (2020). Online learning: A panacea in the time of COVID-19 crisis. *Journal of Educational Technology Systems*, 49(1), 5–22. <https://doi.org/10.1177/0047239520934018>



5. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Mukhortova, A. (2021). Using Telegram messenger to improve speaking skills of students. *International Journal of Innovative Technologies in Social Science*, 1(25), 29–33. [https://doi.org/10.31435/rsglobal\\_ijitss/30032021/7452](https://doi.org/10.31435/rsglobal_ijitss/30032021/7452)
7. Po‘latov, A., & Muhamedova, S. (2011). *Kompyuter lingvistikasi asoslari*. Akademiashr.
8. Rapanta, C., Botturi, L., Goodyear, P., Guàrdia, L., & Koole, M. (2020). Online university teaching during and after the Covid-19 crisis: Refocusing teacher presence and learning activity. *Postdigital Science and Education*, 2(3), 923–945. <https://doi.org/10.1007/s42438-020-00155-y>
9. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
10. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.
11. Shadiev, R., Liu, T. Y., & Hwang, W. Y. (2020). Effects of mobile technologies on speaking skills in English as a foreign language: A meta-analysis. *Educational Technology Research and Development*, 68(3), 877–902. <https://doi.org/10.1007/s11423-020-09755-4>
12. Trust, T., & Whalen, J. (2020). Should teachers be trained in emergency remote teaching? Lessons learned from the COVID-19 pandemic. *Journal of Technology and Teacher Education*, 28(2), 189–199. <https://www.learntechlib.org/primary/p/216088/>